

Ro'ziyeva Ruxshona

Berdaq nomidagi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Yuridika fakulteti 1- bosqich talabasi

+998978881205

ruxshonaravshanzoda13@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi kunda gender tenglik muhokamali mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada gender tenglik haqida umumiy tushuncha va nazariyalar, uning paydo bo'lish tarixi hamda O'zbekistonda gender tenglikning hozirgi holati va kelajakda gender tenglikga erishish strategiyasining maqsadli ko'rsatkichlari keltirib o'tilgan. Bundan tashqari gender tenglikni rivojlantirish uchun taklif va tavsiyalar yoritilib o'tilgan.

Kalit so'z: Gender tenglik, xotin-qizlar, erkaklar, ayollar tengligi, teng huquqlilik, gender strategiya, bilvosita yoxud bevosita, kamsitish.

KIRISH

Gender tenglik va jinsiy tenglik aniqrog'i, erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglik-bu oila va jamiyatda erkaklar va ayollar o'rtasidagi teng huquqlarga erishishni nazarga tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlardir. Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra-bu patriarchal tizimda keyingi ijtimoiy-jinsiy munosabatlarning keyingi bosqichi. Gender tengligi tamoyili insonning shaxs sifatida paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to'siqlarni o'rghanish va yo'q qilish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat.

Shuni alohida qayd etishimiz kerakki, 1948-yil BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ayollar va erkaklar tengligi alohida e'tirof etilgan. BMT tomonidan 1966-yilda qabul qilingan yana bir xalqaro-huquqiy hujjat fuqarolik va siyosiy huquqlar to'grisidagi xalqaro paktning 3-moddasida ta'kidlanganidek, "Mazkur paktda ishtirok etuvchi davlatlar erkaklar va ayollar uchun ushbu paktda ko'rib chiqilgan barcha fuqarolik va siyosiy huquqlardan bir xilda foydalanishni ta'minlash majburiyatini oladi".

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, dastlab gender tenglik ya'ni ayollar va erkaklarning teng huquqga egaligi deb tushunsak, bu dastlab xotin qizlar tengligi kuni-Amerika Qo'shma Shatatlarida 1920-yilda Shtatlat va federal hukumatga ayol jinsli fuqarolarga ovoz berish huquqini rad etishni taqiqlovchi konstitutsiyaga 19- tuzatish qabul qilinganligi munosabati bilan 26-avgust kuni nishonlanadi. Mazkur kun birinchi marta 1971-yil nishonlangan. 1973-yil Kongress tomonidan belgilangan va endilikda har yili AQSH prezidenti tomonidan e'lon qilinadi. Bu sana 1920-yilda davlat kotibi Bainbridge Colby Amerikalik ayollarga konstitutsiyaviy ovoz berish huquqini beruvchi deklaratsiyani imzolagan kun nishonlash uchun tanlagan. Ayollarni saylov huquqi uchun kurash, ayollarning xalqimiz hayotida to'liq va teng ishtirok etishi uchun birinchi qadam edi. So'ngi yillarda biz qonunlarimiz orqali jinsiy kamsitishlarga qarshi kurashish va ayollar uchun teng iqtisodiy imkoniyatlatni yaratish

uchun yangi yo'llarni ochish orqali boshqa ulkan yutuqlarga erishdik. Bugungi kunda jamiyatimizning deyarli barcha sohalarida ayollar muhim hissa qo'shishmoqda va shu bilan birga ayollarimiz yetakchi mutaxasislik ishlarida ishlamoqdalar.


ASOSIY QISM

Mamlakatimizda so'ngi besh yil davomida gender tenglik masalasiga ulkan ahamiyat berilmoqda. Gender tenglik Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan alohida e'tibor qaratilayotgan va qo'llab quvatlash zarurligi etirof etilayotgan muhim masallardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlat rahbari sifatida faoliyatida ilk kunlarida yoq asosiy e'tiborni ayollar va oila muommolariga qaratib kelmoqda. Natijada o'tgan davrda Gender tenglikni ta'minlash va ayollarning ijtimoiy turmush sharoitlarini yaxshilashga doir bir qator normati huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 22-fevral kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti inson huquqlari kengashining 46-sessiyasida so'zlagan nutqida Gender siyosati masalasi borasida, mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan ishlar qat'iy davom ettirilishini ta'kidlaydi. Shu maqsadda joriy yilda O'zbekiston markaziy osiyo mamlakatlari yetakchi ayollarning muloqoti va xotin qizlarning mintaqaviy biznes forumini o'tkazish rejalashtirayotganiga e'tiborini qaratdi. Prezidentimiz 2020-yilning 23-sentabrida vedio anjuman shaklida o'tkazilgan BMT Bosh Assambleyasining 75-yubileyidagi nutqida ham O'zbekistonda gender tengligi siyosati ustuvor masalaga aylanganini alohida qayt etganligi bejiz emas. Chunki keyingi yillarda yurtimizda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rni tobora kuchayib bormoqda. Parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki martaga ko'paydi.

Haqiqatdan ham bugungi kunda xotin-qizlarning o'z imkoniyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarishlari uchun barcha shart-sharoitlarni ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. O'zbekistonda bir qator qonunlar Prezidentning xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash, xususan, gender tengligi va ayollarni zo'ravonlik va zulumdan himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqomini kuchaytirish to'g'risidagi farmon va qarorlarni qabul qilgan. Gender tengligi bo'yicha tegishli inisitutsional choralar ham ko'rilmoxda. Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis senati tarkibida xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil qilingan. Bu yangi tuzilma ayollar huquqlarini ta'minlash va kamsitishning har qanday shakliga barham berish bo'yicha milliy qonunchilikda Xalqaro standartlarni uyg'unlashtirish bilan shug'ullanmoqda.

O'zbekiston gender tenglik ro'yxatida 2019-yildan boshlab qatnashishni boshladi. 2019-yil holati bo'yicha O'zbekistonda statistikaga qaraydigan bo'lsak, gender tenglik ko'rsatkichi bo'yicha ro'yxatdagi 189 mamlakat bo'yicha 62 o'rinni egalladi. BMT aholishunoslik jamg'armasi ekspertlarning fikriga ko'ra, O'zbekistondagi har 100 000 dan 29 ayol gender tengsizlik oqibatida vafot etishi va 15-19 yoshdagi har ming o'spirin qiz uchun tug'ish ko'rsatkichi 23,8 ni tashkil qiladi. Gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxati bo'yicha 62 o'rinda O'zbekiston bilan bir qatorda Kosta-Rika va Urugvay ham 0,288 ko'rsatkichi bilan qayd etilgan.



О'zbekiston 2019-yil 2-sentabrda 562-sonli O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng imkoniyatlari kafolatlari to'g'risida" qonuni qabul qilingan. Ushbu qonunning maqsadi, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni kafolatlari to'g'risidagi qonunchilik, ushbu qonun va boshqa qonunchilik hujjallaridan iborat. Agarda O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasida ushbu qonunchilikda nazarda tutilganidan boshqacha qoida belgilangan bo'lsa, albatta shartnoma qoidalariiga amal qilinadi. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlari kafolatlarini ta'minlashning asosiy prinsiplariga qaraydigan bo'lsak, ular quyidagilardan iborat: qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqligi, jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik, ochiqlik va oshkorlik. Agar shaxs o'zini jins bo'yicha, bilvosita yoxud bevosa kamsitishga duchor etilgan deb hisoblasa, davlat organlari yoki sudga murojaat qilishlari mumkin. Bunda jabirlanuvchidan hech qanday davlat boji undirilmaydi. Ushbu qonun ijrosini ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati, aholi o'rtasida tushuntirilishi, O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi va boshqa manfaatdor tashkilotlar tomonidan ta'minlanadi.

O'zbekistonda gender tenglik bo'yicha komissiya 2019-yilda boshlab ish yuritib kelmoqda. Oliy majlis raisasi Tanzila Norbaeva O'zbekiston Respublikasi gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiya raisi hisoblanadi.

Bundan tashqari, 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasi gender tenglikka erishish strategiyasiga to'xtalib o'tsak. Ushbu strategiya O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida belgilangan mamlakatni rivojlantirishning ustuvor vazifalari hamda 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlar va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan. Gender strategiyasining asosiy maqsadiga kelsak, u irqi, tili, dini, ijtemoiy kelib

chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va iltimoiy mavqeyidan qat'iy nazar xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligini ta'minlashdan iborat.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda gender tenglikka erishishda xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini yanada kuchaytirish masalasi davlat va jamiyatning doimiy diqqat markazida turibdi. Bu muhim omil, oilani mustahkamlash yuqori intetektual yoshlarni voyaga yetkazish va jamiyat barqarorligini ta'minlashning asosiy poydevori hisoblanadi. Gender tengsizligiga qarshi kurashishning asosiy chorralari ayollarni yaxshi ish joylari bilan ta'minlash hamda ularni davlat boshqaruvidagi mavqeyini oshirish borasidagi g'oyalarni ilgari surish kerak. Shu yerda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil iyun oyida Oliy Majlis Senatidagi nutqidan iqtibos keltirishni o'rinni deb bilaman: "Meni kishilarning onggida paydo bo'lgan stereotip ko'p o'ylantiriladi. Odatda biz ayolni avvalambor ona, oila qo'rg'onining qo'riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to'g'ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo'lish kerak".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://lex.uz/docs>
2. Gender tenglik bo'yicha butun jahon statistikasi.
3. Axrorova Sevar Axmedovna. MAHALLA BOSHQARUVIDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI // ORIENSS. 2021. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mahalla-boshqaruvida-xotin-qizlarning-ishtiroki>
4. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. Ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent, 2007. – 300-b.
5. <https://lex.uz/docs/-4494849> Xotin-qizlar teng huquq kafolatlari to'g'risidagi O'RQ-562 02.09.2019